

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**13.00.01 – PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA‘LIMOTLAR  
TARIXI IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA  
KIRISH SINOV LARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand – 2023**

## **TUZUVCHILAR:**

K.Hasanova	SamDU, Fakultetlararo pedagogika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, professor.
N.Kiyamov	SamDU, Fakultetlararo pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori.
E.Abdumannotov	O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrası mudiri

Dastur Fakultetlararo pedagogika kafedrasining 2023-yil \_\_-avgustdagi № \_\_-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## **KIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment mutaxassisligi bo'yicha "Mutaxassislik fanlari"dan tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovlari dasturini o'z ichiga Pedagogika nazariyasi, Pedagogika tarixi, Ijtimoiy pedagogika, Oila pedagogikasi, Xalq pedagogikasi, Qiyosiy pedagogika, Maktabgacha va korreksion pedagogika asoslari, Tarbiyaviy ishlar metodikasi, Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, Pedagogik texnologiya, Pedagogik mahorat kabi 11 ta mutaxassislik fanini qamrab olgan bo'lib, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat va magistratura ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklar bo'yicha katta ilmiyxodim izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talabalar (O'zbekiston davlat standarti)ga asoslanib tuzilgan.

### **Dasturning asosiy maqsadi**

**Dasturning asosiy maqsadi** – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga "Mutaxassislik fanlari"dan tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchi talabgorlarning ilmiy va ilmiy pedagogik ishlarga bo'lgan qiziqishi, layoqati hamda qobiliyatlarini xolisona aniqlash va mezon asosida baholashdan iborat.

### **Dasturning vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tayanch doktorantura (PhD)ga kirish sinovlarini o'tkazish to'g'risidagi ijrosini ta'minlash maqsadida doktoranturaga qabul qilish bo'yicha qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarorini inobatga olgan holda: a) tayanch doktorantura (PhD)ga kirishga talablagorlarning ilmiy va ilmiy pedagogik ishlarga bo'lgan qobiliyati, layoqati hamda qiziqishlarini aniqlashga doir yozma sinovni tashkil etish; b) uning ilmiy va ilmiy pedagogik ishlarga bo'lgan qobiliyati, layoqati hamda qiziqishlarini aniqlash maqsadida tanlangan mutaxassislikka mos savollar asosida yozma sinovdan o'tkazilishini ta'minlashdan iborat.

## **PEDAGOGIKA NAZARIYASI**

### **fani bo'yicha**

O'qituvchilik kasbining jamiyatda tutgan o'rnini. Pedagogikaning nazariy asoslari. Umumiy pedagogik jarayonning nazariy asoslari. Didaktika (ta'lim nazariyasi): ta'lim jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, ta'lim olganlikni tashxis etish. Tarbiya nazariyasi: tarbiya jarayoni, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari: maqsadi va vazifalari, mazmuni va mohiyati, shakl, metod va vositalari. Ta'lim muassasasini boshqarish: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, ta'lim sohasida davlat

siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va turlari, ta'lim muassasasi menejmenti, ta'limni boshkarish tamoyillari, ta'limning ichki boshqaruvi. Korreksion pedagogika asoslari: korreksion pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi, korreksion pedagogikaning sohalari.

Kadrlar tayyorlash tizimi va uning asosiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiypedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Shaxs haqida tushuncha. Shaxs rivojlanishi. Shaxs rivojlanishining omillari. Bola shaxsi tarbiya obekti va subekti sifatida. Shaxs faolligi.

Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim tizimlariga umumiy tavsif. Pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Yagona pedagogik jarayonni yaratish mantig'i va sharoitlari.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejining o'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejining davlat ta'lim standartlari.

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari: o'quv dialogi, munozara, didaktik o'yinlar, trening va boshq. Akademik lisey, kasb-hunar kollejlarda ma'ruza va seminar. O'quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari shakllari.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasining shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quvtarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish – aqliy tarbiyaning asosi. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari.

Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

Axloq ijtimoiy ong, ta'sir etish, va tarbiya shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik.

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. Oila, uning tarbiyaviy funksiyasi.

Oilaviy tarbiyaning huquqiy asoslari. Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rliqi. Sharq mutafakkirlari oilaviy tarbiya haqida. O'quvchilarning o'quv faoliyatida oilaning g'amxo'rliqi. Oilaviy tarbiya qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida umumiy tushuncha. Akademik lisey va kasb-hunar kolleji haqidagi Nizom. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar qabul qilish. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va mazmuni. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va ularni attestasiyadan o'tkazish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar. Boshqa kamchiliklar(eshitish, ko'rish, nutq). O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy holati.

## **PEDAGOGIKA TARIXI**

### **fani bo'yicha**

Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiya va uning kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Folklor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalanishi. Qadimgi davlatlar: Sug'diyona, Baqtriya va Xorazmda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi. «Avesto»-eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati.

Movaraunnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti. Arab musulmon olami Uyg'onish davri va uning o'ziga xosliklari. Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida ta'lim-tarbiya masalalarining aks etishi. Muso al Xorazmiyning fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Abu Ali ibn Sino va uning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. Abu Nasr Forobiy asarlarida pedagogik masalalarning yoritilishi. Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari va ularning ahamiyati. Yusuf Xos Xojib va uning «Qutadg'u bilig» asari.

XIV-XV asrlarda Movaraunnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Ijtimoiy hayotning tarbiya, ta'lim va pedagogik fikr taraqqiyotiga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temurning markazlashgan davlatining paydo bo'lishi va uning ilm-ma'rifatning taraqqiy etishidagi roli. Maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy fanlarni o'qitishning rivojlanishi. Mirzo Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari. Uning davrida ta'lim-tarbiya tizimi. Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy merosi. Navoiyning «Hayratul abror» «Mahbub ul-qulub» asarlarida ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Jaloliddin Davoniyning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. «Axloqi Jaloliy» asarining pedagogik fikrlar taraqqiyotida tutgan o'rni. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari.

XVII-XVIII asrlar, XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti. Madrasalarda «Qur‘on», «Tafsir», «Odob-assolihin», «Kimyoi saodat», «Hadis», «Shamoyil-ul-nabi», «Hikmat ul-ayn»larning o‘rganilishi. Qo‘qon va boshqa xonliklarda otinoyilar maktablari. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi.

Turkiston o‘lkasida islom diniy-tarbiyaviy muassasalarning an‘anaviy tizimi. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Turkistonda jadidchilik harakati, yangi usul maktablarining paydo bulishi. I.Gaspirali faoliyati. Munavvar Qori, Avloniy, Shakuriy, Behbudiylarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta‘lim-tarbiya tizimi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat faoliyati va ilmiy pedagogik me‘rosi.

O‘zbekistonda 1917-1924-yillarda maktab va maorif. Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilganidan so‘ng xalq ta‘limi va pedagogik fikr (1924-1941). Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda O‘zbekistonda xalq maorifi va pedagogika taraqqiyoti. Siddiq Rajabov va uning O‘zbekistonda pedagogika fani rivojiga qo‘shgan hissasi. XX asrning 70-80-yillarida O‘zbekistonda ta‘lim tizimi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e‘lon qilinishi va ta‘lim tizimidagi islohotlar. «Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Uzlüksiz ta‘lim tizimi va turlari. Mustaqilliy yillarida pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari. Prezident I.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi va ta‘lim -tarbiyani isloh qilish g‘oyalari.

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta‘lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlarida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi. Qadimgi Yunoniston (Spartak, Afina) davlatlarida tarbiya va ta‘lim tizimi. Qadimgi Yunon faylasuflari ta‘limotida tarbiya masalalari. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ta‘lim-tarbiya. Ya.A. Komenskiyning sinf-dars tizimi. K.D.Ushinskiy ning pedagogik merosi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada pedagogik islohotlar va uning asosiy oqimlari. Jahon mamlakatlarida pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim tizimi va maktablarda ta‘limtarbiya amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy oqimlari. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta‘lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

## **IJTIMOIIY PEDAGOGIKA**

### **fani bo‘yicha**

Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zaruriyat sifatida. Uning asosiy muammolari. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogika asoslari. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Bolaning sotsiumda rivojlanishi. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Odob-axloq hayotiy me'yorlar sifatida. Ijtimoiy pedagogikada "me'yordan og'ish" tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik jarayon. Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-pedagogik an'analari. Jamiyatning milliy mafkuraviy ongliligi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog ta'lim tizimida. Ijtimoiy pedagogning bolalar va o'smirlar orasidagi reabilitatsion xizmati modeli va mexanizmi. Deviant bolalar va o'smirlar. Ularni reabilitatsiya qilish yo'llari. Ijtimoiy pedagog faoliyati metodikasi va texnologiyasi. Deviant bolalar va o'smirlar. Ularni reabilitatsiya qilish yo'llari. Ijtimoiy pedagog faoliyati metodikasi va texnologiyasi.

Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sosiologiya faniga zaruriyat va uning ahamiyati.

Rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an'anasi sifatida. O'zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari. O'zbekistonda "ijtimoiy pedagog" kasbining paydo bo'lishi.

Antik davrda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi. XIV–XV asrlarda ijtimoiy-pedagogik g'oyalarning rivojlanishi. XVI–XIX asrlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat. XX asrning 20-yillarida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar va pedagogik faoliyatning tubdan yangilanishi. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining zamonaviy bosqichi.

«Avesto» va adabiy manbalarda ijtimoiy-pedagogik g'oyalar. O'rta asrlarda O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik g'oyalari. XVIII–XIX asr ma'rifatparvarlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari. XX asr boshlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. II jahon urushi yillarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri. O'zbek etnografiyasida mukammal inson modeli. Islom – monoteistik din. Hadislarda ijtimoiy-pedagogik fikrlarning yoritilishi.

Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot obekti va ijtimoiy pedagogika rivojlanishi tarixidan. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon.

Me'yor va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif. Me'yordan og'ish turlari. Me'yordan og'ish nazariyasi. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi. Kasbiy faoliyatning tuzilishi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy bilimdonlik. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari.



“Tamoyil” va “qoida” tushunchasi. Tabiat bilan uygʻunlik tamoyili. Madaniyat bilan uygʻunlik tamoyili. Insonparvarlik tamoyili.

Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Ijtimoiy taʼlim. Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.

Ijtimoiylashuvga taʼsir etuvchi omillar. Tashqi va ichki omillar. Mikro, mezo va makro omillar. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning taʼsiri.

Bolaning ilk ijtimoiylashuv davri. Bolaning ijtimoiylashuvida oila, taʼlimtarbiya muassasalari, madaniyat, din va mahallaning oʻrni.

Mahallaning paydo boʻlishi tarixidan. Mahallaning ijtimoiy-pedagogik oʻrni. Mahallada qadriyatlar va ijtimoiy ong translyasiyasi.

Ilmiy tadqiqotning mohiyati. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sosiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotning bosqichlari va metodlari.

Oʻsmirlik yoshida deviasiyaning yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Deviasiya turlari. Oʻsmirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishi sabablari. Deviasiya konsepsiyalari.

Metodika tushunchasi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari mohiyati. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-reabilitasion muassasalarning tubdan yangilanishi. Oʻzbekistonda SOS – bolalar mahallasining faoliyati.

Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari. Oilaning ijtimoiy vazifalari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.

Vasiylik va homiylik tushunchasi. Vasiylik va homiylik tarixidan. Vasiylik va homiylikning meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi. Oʻzbekiston va chet elarda vasiylik va homiylik.

Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Yetim bolalarning psixologiyasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Chaqaloqlik davrida ijtimoiylashuv moslashuv. Goʻdaklik davrida ijtimoiy moslashuvning oʻziga xosliklari. Maktabgacha taʼlim muassasalarida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining ijtimoiy funksiyalari. Maktabdan tashqari vaqtni toʻgʻri tashkil etishda ijtimoiy pedagogning oʻrni. Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Maktabda pedagogik jihatdan meʼyordan ogʻishganlar bilan ijtimoiy pedagogning olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari. Ijtimoiy pedagogning oʻquvchilarni kasb tanlashga yoʻnaltirishga oid vazifalari.

Spirтли ichimliklar iste'mol qilish muammosi. Bolalarning spirтли ichimliklar ichishining sabab va oqibatlari. Bolalardagi spirтли ichimlikka munosabat darajasi va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

Giyohvandlik muammosi. Narkotik moddalarning turlari va tasnifi. O'smirlar giyohvandligining sabablari va oqibatlari. Bolalarda giyohvandlikka munosabat darajasi va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosi. Voyaga yetmagan xuquqbuzarlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasa. Voyaga yetmagan jazoga xukm qilinganlarning yosh bilan bog'liq o'ziga xosliklari, hamda tarbiyaviy muassasalarda joylashuvi.

Ijtimoiy - pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati. Naza-riy, amaliy va tadqiqotchilik ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Ijti-moiy pedagogning amaliy faoliyati va texnologiyalarning o'zaro aloqalari. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar tasnifi. Tasnifning asoslari va me-zonlari. Umumiy va xususmy ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar. Diag-nostik, diagnostik-prognostik, ekspertbaholash ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar.

Bosqichlilik - ijtimoiy - pedagogik texnologiya strukturasi va uni amalga oshirish jarayonining asosiy xususiyati sifatida. Ijtimoiy - pedagogik texnologiyani tanlash jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi.

Ta'lim muassasasining yo'nalishi, ijtimoiy-pedagogik vazifalar bilan bog'liqligi. Ijtimoiy-pedagogik tashhis, istiqbollash, rejalashtirish, boshqarish va baholash. Ta'lim muassasida ijtimoiy - pedagogik ishni tashkil etish. Ta'lim muassasasi ijtimoiy - pedagogik xizmatining bolani ijtimoiylashtirish (sozializasiya), uni tarbiyalash, sog'lomlashtirish, himoyalash, o'z -o'zini rea-lizasiyalashni rivojlantira boshlash muammolariga yo'naltirilganligi.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy maqomi yangi ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy va psixologik omillar bilan belgilanganligi. Ta'lim muassasasida ijtimoiy pedagog faoliyatining boshqaruv, tarbiyaviy va tashkiliy ji-hatlari. Ta'lim muassasasi, oila va ijtimoiy muhit bilan ishlash ijtimoiy pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari uning tashhis, boshqaruv va muvofiqilashtirish ishlari bilan belgilanganligi. Dastlabki tanishish – bilish vazifalari. Maktabgacha muassasaning tayanch muammolari: dastlabki ijtimoiylashtirish, individual qobiliyatlarni rivojlantirish, motivasiya, moslashish, xulq uslubini shakllantirish va sh.k. ni hal etish. Ijtimoiy pedagogning psixologik, pedagogik va tibbiy yo'nalishdagi markazlar bilan tashqi aloqalari. Namunaviy texnologik xaritani uning bosqichlari tavsifini yaratish. Ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy metodlari: loyihalash, rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash. Tashhis va istiqbollash vositalari, so'rovnomalar, kuzatuv va tahlil hujjatlari blankalari.

Ishning asosiy yo'nalishlari: mazkur toifadagi bolalarni aniqlash va guruh yoki yakka tartibda ishni tashkil etish. Tashkiliy ijtimoiy pedagogik texnologiyalar: 1) tarbiyasi og'ir bolalar haqida ma'lumotlar bankini shakllantirish; 2) bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolarini tashhishlash; 3) bola, guruh, jamiyat bilan ijtimoiy – pedagogik ishlar dasturini tuzish va tasdiqlash; 4) dasturning bajarilishi sharoit-larini ta'minlash; 5) maslahat xizmati; 6) ijtimoiy pedagogning idoralararo aloqalari.

Oila – ijtimoiylashtirishning bosh instituti. Oilada nomaqbullik ko'rsatkichlari va bola tarbiyasiga salbiy ta'siri. Bola – ijtimoiy pedagogning sa'y-harakatlari markazi. Nomaqbul oila bilan ishlash texnologiyasi darajalari: profilaktika, tashhishlash, reabilitasiyalash. Ota – onalarga pedagogik ma'rifat tarqatish; ota-onalar va mutaxassislarning ixtiyoriy hamkoligi; erkin tarbiyalash targ'iboti. Diagnostik texnologiya tamoyillari: obektivlik, axborot manbalarining ko'p sonliligi, klientosentrizm, konfidensiallik (maxfiylik). Diagnostik texnologiya metodlari: shkalalashtirish, loyihalash va assosiativ loyihalash, kartochkali, ekspressiv metodikalar, ijtimoiy biografiyalar metodi, hujjatlar tahlili. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam turkumi (sikli). Reabilitasiya ishi darajalari:

- individual (maslahat texnologiyalari, xat-murojaat, ijtimoiy patronaj);
- guruhli (suhbat, ma'ruza, disput, yig'ilish, diskussiyalar, trening); umumiy (suhbat, ma'ruza. Ommaviy aksiyalar - hasharlar, sayohatlar, bayramlar uyushtirish).

Keyingi o'n yillikda butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan bolalar soni ortganligi. «Izolyasiyadan integrasiyaga» muammosiga zamonaviy yondashuv. Ijtimoiy pedagogning maqsadi – oilaning vaziyatli – rolli moslashganligini orttirish. Ijtimoiy-rolli moslashganlik ko'rsatkichlari: bolaga munosabat; oilaning reabilitasion faolligi; oilaning reabilitasion madaniyati. Oila bilan o'zaro hamkorlikning texnologik modellari: yordam; psixologik, krizisintervent, muammoli–yo'naltirilgan.

## **OILA PEDAGOGIKASI**

### **fani bo'yicha**

Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifa-lari. Oila pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Oila pedagogikasining ilmiytadqiqot metodlari.

Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari. Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi. Yan. Amos Komenskiy oilada tarbiyaning o'rnini haqida. Ma'rifatparvar mutafakkirlarning oila tarbiyasiga oid fikrlari. Rus pedagoglarining oila pedagogikasiga oid qarashlari.

Qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar. «Qur'oni Karim» va hadislar oila tarbiyasining muhim manbalari sifatida. O'rta asrlarda oila pedagogikasiga oid fikrlar. Ma'rifatparvar o'zbek pedagog-olimlari oila tarbiyasi xususida. XX asrda oila tarbiyasiga doir yondashuvlar va ularning mohiyati. Mustaqillik yillarida oila tarbiyasi masalasi.

Oila – mustaqillik yillarida davlat siyosatidagi ustivor masala sifatida. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligi.

Oila tushunchasi. Oilaning vazifalari: jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalari; odamlarga munosabati bo'yicha oilaning vazifalari.

Oilaning tarixiy turlari. Hozirgi vaqtda oilalarning xilma-xil shakllari. O'zaro munosabatlar xarakteri bo'yicha oilalarning turlari.

Zamonaviy oilalarning o'ziga xosliklari. Zamonaviy oilalar rivojining ijtimoiy xususiyatlari. Zamonaviy oilalar rivojining psixologik xususiyatlari. Zamonaviy oilalar rivojining pedagogik xususiyatlari.

Oila tarbiyasi yaxlit tizim sifatida. Oilada axloqiy tarbiya. Oilada bolalarni estetik ruhda tarbiyalash. Oilada jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish. Oilaning bolalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishdagi o'rni.

Oilada bolalarni tarbiyalash metodlari. Ota-onalarning tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash shart-sharoitlari. Oilada bolalarni tarbiyalash shakllari. Oilada bolalarni tarbiyalash vositalari.

Muloqot tushunchasi. Oilada muloqot uslublari va ularning o'ziga xosliklari. Avtoritar uslub. Liberal uslub. Demokratik uslub.

Ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, sinf(guruh) rahbarining o'quvchilarning ota-onalari bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlari haqida tushuncha. Pedagogik lektoriyalar. Sinf (guruh)lar bo'yicha pedagogik majburiy ta'lim. Yillik yakuniy ilmiy-amaliy konferensiya. Ochiq eshiklar kuni. Sinf(guruh) ota-onalar majlisi. Pedagogik maslahat.

## **XALQ PEDAGOGIKASI**

### **fani bo'yicha**

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni, xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar, xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni, o'zbek xalqining muomala

madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati.

Xalq pedagogikasining pedagogika tizimidagi o'rni. Kursning predmeti, obekti, maqsadi va vazifalari.

Xalq pedagogikasining boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning milliy yo'nalishiga qo'yilgan talablar. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq pedagogikasida bola -ta'lim va tarbiya obekti va subekti sifatida. Umumiy o'zbek ta'lim tizimi, AL va KHKlarida xalq pedagogikasi g'oyalari va tarbiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.

Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila obrazi. Sevgi va oilaviy munosabatlar. Bola tarbiyasida oilaning muhim ahamiyat kasb etishi. Ota-ona tarbiyachi sifatida. Oilada buvilar va buvalarning tarbiyadagi o'rni. O'zbek xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiya haqidagi tasavvurlarning ifodalanishi.

Xalq pedagogikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish va boshqa bir qator tarbiyalash metodlarining mavjudligi va ulardan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari. Xalq pedagogikasi va avlodlar vorisligi.

O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi. Folklor va folkloristika. Xalq og'zaki ijodi xususiyatlari va janrlari. Xalq prozasi va poeziyasi. qo'shiqlar, maqol va matallar. Afsonalar va rivoyatlar, asotirlar va masallar. Xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlari. «Avesto» yovuzlik ustidan adolat, ezgulik g'alabasi ramzi.

Dostonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik, epik, dramatik dostonlar. Qahramonlik dostonlari, jangnoma, tarixiy, romantik kitobiy dostonlar. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati. Dostonlarda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik g'oyalarining aks etishi.

Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati. Xalq o'yinlari va o'yinchoqlar. Oilaviy an'analar. Tarbiyaviy an'analar. Bayramlar. Xalq sayllari. Davlat bayramlari, diniy bayramlar. Xalq bayramlari turlari. Milliy urf-odatlar va an'analarning e'zozlanishi, avlodlarga me'ros qoldirilishi va ularning barqarorligining ta'minlanishi.

Diniy bag'rikenglik. Diniy adabiyotlar – pedagogik fikrlar manbai sifatida. Diniy fanatizm, fundamentalizm, terrorizm xavf-xatari – diniy savodsizlik oqibati ekanligi. Diniy ta'limot, hadislarining tarbiyaviy ahamiyati.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, xalq raqs san'ati va teatr. Dorbozlik. Qo'g'irchoq teatri, uning tarixi. Tasviriy san'at. Xalq amaliy san'ati,

tasviriy san'at, musiqa san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda muhim omil sifatida.

Farzand tarbiyasida mahallaning o'rni. Sof insoniy fazilatlar: sahiylik, xushmuomalalik, oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik va b. Barcha ijobiy xislatlarni bola tarbiyasiga singdirish.

## **QIYOSIY PEDAGOGIKA**

### **fani bo'yicha**

